

## ANDIJON VILOYATI XONOBOD SHAHRIDA 2021-2023 YILLARDA AMALGA OSHIRILGAN TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISH JARAYONI

*Saidqulov Feruzbek, Shukurov Rasuljon, Toshtemirov Jamshid*

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti*

*“Moliya” fakulteti MMT-82 talabalari*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Andijon viloyat Xonobod shahrida 2021-2023 yillarda tashabbusli budjetlashtirish jarayoni, ajratilgan mablag'lar miqdori, amalga oshirilgan loyihalar talil qilingan.

**Kalit so'zlar:** tashabbusli byudjet, openbudget.uz, tashabbus, ovoz berish, moderatsiya, ishchi komessiya, g'olib loyihani aniqlash, “Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi”, shartnoma tuzish.

Mamlakatimizda byudjet ma'lumotlarining ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish, byudjet mablag'larining shakllanishi va sarflanishi ustidan va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Biz mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tashabbusli byudjetlashtirish amaliyoti, mavjud holatni o'rganish uchun Andijon viloyati Xonobod shahrida 2021-2023 yillarda “Tashabbusli budjet” loyihalari va ularning ijrosi yuzasidan olib borilgan ishlar bilan bog'liq ma'lumotlar bilan tanishib chiqamiz.

Quyidagi 1-jadvalda Andijon viloyati Xonobod shahrida tashabbusli budjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar miqdori, yil boshiga va yil oxiriga budjet hisobida qolgan qoldiqlari miqdori haqida, shuning bilan birga loyihalarning moliyalashtirilgan mablag'larini ko'rishimiz mumkin.

### 1-jadval

#### Andijon viloyati Xonobod shahrida tashabbusli budjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar miqdori<sup>1</sup>

(ming so'mda)

T/r	Ko'rsatkich nomi	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1.	Yil boshiga qoldiq	0	22 500	741 067
2.	Hisobot davrida “Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi”ga o'tkazilgan mablag'lar	1 111 000	3 617 000	7 898 737
3.	“Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi”dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan	1 092 500	2 880 000	7 410 000

<sup>1</sup> <https://openbudget.uz/boards/reports>

3.1.	Bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag‘	1 080 000	-	-
3.2.	Hisobvaraqlardagi qoldiq	18 500	737 000	488 737
4.	“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”da qoldiq mablag‘	18 500	737 000	488 734

Yuqoridagi ma’lumotlardan 2021-yil boshiga qoldiq mablag‘i 2021-yildan boshlab amalga oshirilganligi sababli yo‘qligini ko‘rishimiz mumkin. 2022-yil boshiga qoldiq **22 500 000** so‘mni, 2023-yilda esa **741 067 000** so‘mni tashkil qilgan. Hisobot davrida “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga o‘tkazilgan mablag‘lar 2021-yil **1 111 000 000** so‘mni, 2022-yil **3 617 000 000** so‘mni, 2023-yil **7 898 737 000** so‘mga oshgan. “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar mos ravishda 2021-yil **1 092 500 000**, 2022-yil **2 880 000 000** so‘mni, 2023-yilda esa **7 410 000 000** so‘mni tashkil qildi. “Fuqarolar tashabbusli jamg‘armasi”da qoldiq mablag‘lari 2021-yil **18 500 000** so‘mni, 2022-yili **737 000 000** so‘m, 2023-yilda esa **488 734 000** so‘mga yetdi.

Andijon viloyati Xonobod shahar tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlar soni, tadbir yo‘nalishlari, yo‘naltirilgan mablag‘lari ko‘rildi. Shu orqali shu vaqtgacha muammoli sohalarning birinchi navbatda qaysi biri o‘z yechimini topishi aholi turmush darajasida ko‘proq amiyatli ekanligini va ularning miqdori qanchaligi o‘rganildi.

## 2-jadval

**Andijon viloyati Xonobod shahri tashabbusli budjetlashtirish natijasida  
amalga oshirilgan tadbirlar<sup>2</sup>**

T/r	Tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni			Sarflangan mablag‘ (ming so‘mda)		
		2021-yil	2022-yil	2023-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
<b>Jami</b>		<b>2</b>	<b>8</b>	<b>9</b>	<b>1 080 000</b>	<b>2 880 000</b>	<b>7 410 000</b>
1.	Hududiy ichki yo‘llar	-		4	-	-	4 520 000
2.	Umumta‘lim maktablarini ta‘mirlash va jihozlash	1	3	4	900 000	1 720 000	1 790 000
3.	Maktabgacha ta‘lim muassasalarini ta‘mirlash va jihozlash	-	4	-	-	860 000	-

<sup>2</sup> <https://openbudget.uz/boards/reports>

4.	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	-	-	-	-	-	-
5.	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	1	-	1	180 000	-	1 100 000
6.	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash	-	-	-	-	-	-
7.	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish tadbirlari	-	-	-	-	-	-
8.	Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish)	-	-	-	-	-	-
9.	Boshqa tadbirlar	-	1	-	-	300 000	-

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turiptiki, 2021-yil ichida jami 2 ta loyiha moliyalashtirilgan. Bular umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash, boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash. Ajratilgan mablag'lar esa **1 080 000 000** so'mni tashkil qilgan. 2022-yilda umumta'lim maktablari va maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash yetakchilik qilgan. G'olib loyihalar soni 7 ta va jami loyihalarning **87%** ini tashkil qilgan, pudradchilarga to'langan mablag'lar esa **2.5 milliard** so'mni tashkil etgan. 2022-yil Xonobod shahar tashabbusli budjetidan sarflangan mablag'larning **89%** ini tashkil qilgan. 2023-yilda umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash hamda hududiy ichki yo'llar yetakchilik qilgan. G'olib loyihalar soni teng taqsimlangan holda 8 tani va jami loyihalarning **86%**ini tashkil qilgan, pudratchilarga to'langan mablag'lar esa **6.3 milliard** so'mni tashkil etgan. 2023-yil Xonobod shahar tashabbusli budjetidan sarflangan mablag'lari umumiy miqdorining **87.5%** ini tashkil qilgan.

## 3-jadval

**Andijon viloyati Xonobod shahrida Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalari<sup>3</sup>**

Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari	2021-yil	2022-yil	2023-yil
---	----------	----------	----------

<sup>3</sup> <https://openbudget.uz/boards/reports>

Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar		3 617 000	6 655 169
Mahalliy budjetining yil boshiga shakllangan Erkin qoldiq mablag'lari		519 710	
Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar		211 800	760 584
Shu jumladan	Erkin qoldiq mablag'lari		741 067
	Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi	211 800	760 584
	Iqtisod qilingan mablag'lar		
Qo'shimcha ajratilgan	PQ-5250ga asosan		
	PQ-409ga asosan		
	PQ-117ga asosan		
<b>Jami ajratiladigan mablag'lar</b>		<b>211 800</b>	<b>4 377 584</b>

Yuqoridagi jadvalga asosan, Shahar mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar 2021-yil yo'q, 2022-yil 1-chorakda **1 099 000 000** so'mni, 3-chorakda **2 518 000 000** so'mni, 2023-yilda bu ko'rsatkich 1-chorakda **3 089 169 000** so'mni, 3-chorakda **3 566 000 000** so'mni tashkil qildi. Shahar mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar 2022-yil 1-chorakda **139 376 000** so'mni, 2-chorakda **353 068 000** so'mni tashkil qilgan.

## 4-jadval

**Andijon viloyati Xonobod shahri tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihalar tarkibi<sup>4</sup>**

T/r	Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	Jami to'plagan ovozlar soni	Moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag' miqdori (ming so'mda)
<b>2021-yilda</b>			
1.	Ichimlik suvi va oqava tizimlarini yaxshilash b/y	521	12 500
2.	Drenaj va ariq (zovur)larni tartibga keltirish	360	180 000

<sup>4</sup> <https://openbudget.uz/boards/reports>

3.	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash	246	900 000
	<b>Jami</b>	<b>1 127</b>	<b>1 092 500</b>
<b>2022-yilda</b>			
1.	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va moddiy-texnik bazasini rivojlantirish...	2 528	180 000
2.	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va moddiy-texnik bazasini rivojlantirish...	2 214	200 000
3.	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnik bazasini rivojlantirish...	1 329	1 000 000
4.	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va moddiy-texnik bazasini rivojlantirish...	1 027	155 000
5.	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnik bazasini rivojlantirish...	985	320 000
6.	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnik bazasini rivojlantirish...	980	420 000
7.	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va moddiy-texnik bazasini rivojlantirish...	948	325 000
8.	Drenaj va ariq (zovur)larni tartibga keltirish bilan bog'liq tadbirlar	793	300 000
	<b>Jami</b>	<b>10 804</b>	<b>2 900 000</b>
<b>2023-yilda</b>			
1	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnik bazasini rivojlantirish...	2 038	540 000
2	Boshqa ta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnik bazasini rivojlantirish...	1 501	1 100 000
3	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnik bazasini rivojlantirish...	1 407	500 000
4	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	1 317	1 100 000
5	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnik bazasini rivojlantirish...	1 282	350 000
6	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	1 242	1 200 000



7	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	1 239	920 000
8	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	1 120	1 300 000
9	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnik bazasini rivojlantirish...	993	400 000
	<b>Jami</b>	<b>12 139</b>	<b>7 410 000</b>

Yuqoridagi 4-jadvalda ko'rishimiz mumkinki, 2021 yilda 3 ta loyiha amalga oshirilgan. Ichimlik suvi va oqava tizimlarini yaxshilash b/y loyihasi eng ko'p 521 ta ovoz bilan eng ko'p ovoz to'plagan. Drenaj va ariq (zovur)larni tartibga keltirish 246 ta ovoz bilan g'olib loyihalar ichida eng kam ovoz to'plagan. 2022-yilda jami 8 ta loyiha g'olib deb topilgan. Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va moddiy-texnik bazasini rivojlantirish 2528 ta ovoz bilan eng ko'p ovoz to'plagan va **180 million** so'm mablag' ajratilgan. 43-umumta'lim maktabini ta'mirlash va moddiy-texnik bazasini rivojlantirish tadbiri 948 ta ovoz bilan g'olib loyihalar ichida eng kam ovoz to'plagan va **325 million** so'm ajratilgan. 2023 yilda jami 9 ta loyiha g'olib deb topilgan. Ulardan Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar 10317 ta ovoz bilan eng ko'p ovoz to'plagan va **1.1 milliard** so'm ajratilgan. G'olib loyihalar ichida 993 ta ovoz bilan umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnik bazasini rivojlantirish eng kam ovoz to'plagan va **400 million** so'm mablag' ajratilgan

Xulosa qilib aytganda, Tashabbusli byudjetlashtirish fuqarolarning takliflarini hisobga olgan holda turli ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilish uchun mahalliy byudjet mablag'larining bir qismini taqsimlash va bu mablag'larni sarflash yo'nalishlarini aniqlash bo'yicha ularning bevosita ishtirokida qarorlarni qabul qilishga xizmat qilmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент:“Шарк. 2010;804.
2. Malikov, T., and Haydarov NH. Byudjet. "O'quv qo'llanma." Toshkent: "Iqtisod-moliya 84 (2008).
3. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O'quv qo'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018
4. Malikov T, Haydarov N. Budjet daromadlari va xarajatlari. O'quv qo'llanma, Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA. 2007.

5. Маликов ТС. Хайдаров НХ “Молия: умумдавлат молияси”. Ўқув қўлланма. 2009.
6. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.:“Iqtisod-moliya. 2019.
7. Malikov, T. S., & Olimjonov, O. O. (2019). Moliya: Darslik.
9. Malikov T, Haydarov N. Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O‘quv qo‘llanma, Toshkent “IQTISOD-MOLIYA. 2008.
10. Ўроқов У. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари. Т. 2017
11. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022
12. У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари - Science and Education, 2022
13. Ўроқов У, Иргашев И, Ғайбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022
14. УҮ О‘роқов, JA Yomg‘Irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta‘minlash masalalari - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary ..., 2022
15. Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффофлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.
16. Ўроқов У. Ғайбуллаев О. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Baktria press. 2016.
17. Уроқов У. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишга оид назарий қарашлар. Республика илмий-амалий конференция. ТМИ 2020.
18. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020
19. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари. 2017
20. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
21. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.
22. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг ҳуқуқий асослари.- Science and Education, 2023
23. G‘aybullayev O, O‘roqov U. O‘zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O‘quv qo‘llanma. T.: Baktriapress. 2016;168.
24. Xaydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O'quv qo'llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.
25. Хайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2020.

26. Хайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления. “Молия” илмий журнали. 2022.
27. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022.
28. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022).
29. Машарипов И. Б. Фуқаролик жамиятининг ривожланиш даражасини баҳолаш индекслари. ЎзМУ ХАБАРЛАРИ. 2018. 1/6 сон

